

EKOESTETIK TAFAKKURNING SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI.

Niyazov Sobirjon Sodiqovich

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
v.b.dotsenti f.f.b.f.d PhD, niyazov-s@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada, Ekologik borliqni fundamental nazariy bilishda estetikaning ontologik, gnoseologik, metodologik va praksiologik funksiyalari turli amaliy darajalarda – kundalik oddiy urf-odatlar, an'analar yoki murakkab texnik-texnologik madaniyatga asoslangan ekologik faoliyat tarzida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: ekologik madaniyat, ekologik tafakkur, ekologik tarbiya, ekoturizm, ekologik vaziyat, "bokira" tabiat, gedonistik va evdomonistik, tabiat-jamiat-inson, ekologik ehtiyoj, ekologik borliq.

Annotation. The article explores the ontological, epistemological, methodological, and praxeological functions of aesthetics in the fundamental theoretical understanding of ecological existence. These functions manifest at various practical levels — in the form of ecological activities based on everyday customs and traditions, or within a complex technical and technological culture. From this perspective, a scientific and theoretical analysis was conducted.

Keywords: ecological culture, ecological thinking, environmental education, ecotourism, environmental situation, "pristine" nature, hedonistic and eudaimonistic, nature-society-human, ecological need, ecological existence.

Kirish. Hozir turistik oqim yo'nalishi, XX asrdan farqli ravishda, nafaqat industrial rivojlangan mamlakatlararo, balki rivojlanayotgan mamlakatlar, ya'ni texnogen sivilizatsiyaning tabiat bokiraligiga, barqarorligiga ta'siri, nisbatan sust bo'lgan davlatlar tomonga o'zgarmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning turizm industriyasi, asosan ekologik turizm – ekoturizm, hisobiga amalga oshirilmoqda. Ekoturizm tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga yo'naltirilgan ekologik harakatning maxsus shakli sifatida ommaviy kommunikatsiya, zamonaviy infrastruktura va boshqa turistik obyektlarga nisbatan tabiiy komfortni qadrlash, go'zalligini mushohada qilish, zavqlanish, u bilan muloqotdan ma'naviy boyish, tabiiy merosni saqlash hamda mahalliy jamoalarning ekologik an'anaviy madaniyati va qadriyatlarini muhofaza qilish ustuvorligini va unga daxldorligini, mas'uliyatini his qilishni ko'zda tutadi.[1,719 c.].

Metodlar va metodologiya Jamiat ekologik ongi va madaniyatining, ijtimoiy hodisa sifatida, tabiatga estetik munosabatini shakllantirish, bir tomondan, uning funksiyalarini: 1) ontologik – borliqning alohida shaklini tashkil qilishi va namoyon bo'lishi; 2) gnoseologik – bilishning asosiy tushunchalari tizimini, kategoriyalarini yaratishi va tizimlashtirishi; 3) evristik – borliqni qayta "yaratish"ning yangi usullarini va vositalarini kashf etishi; 4) aksiologik – qadriyat maqomiga ega bo'lish va uni mustahkamlash; 5) praksiologik –

natijalarni amalda qo'llash; 6) metodologik – faoliyat usullarini, vositalarini, yo'llarini ko'rsatishi; 7) pedagogik-didaktik – ta'lim-tarbiya berish jihatlarini aniqlashtirishi bilan xarakterlanadi. Ekologik ong va madaniyatni estetiklashtirish jarayoni ham, natijasi ham, tabiatni muhofaza qilish, uning resurslaridan oqilona foydalanishda shaxs faol hayotiy mavqeini mustaxkamlashga yo'naltirilgan ijtimoiy ong shakllarining funksional ahamiyatini aniqlashtiradi. Shu sababdan ekologik madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan estetik ta'lim va tarbiya jarayoniga bir butun, yaxlit hodisa sifatida qarash maqsadga muvofiq. Ya'ni ekologik tarbiya, bir vaqtning o'zida ratsional estetik nazariya va empirik estetik amaliyot darajasida namoyon bo'ladi. Chunki insonning ekologik ehtiyojlari tizimida moddiy va ma'naviy, empirik va ratsional jihatlar birligi, uning mohiyatini har tomonlama to'liq namoyon qiladi. Lekin jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida, inson ehtiyojlari tizimida, moddiy ehtiyojlarni qondirish, ularning usul-vositalari rivojlantirish ma'naviy ehtiyojlarga nisbatan ustuvorligi qonuniyat maqomiga ega bo'lgan. Ekoturizm, umuman turizm industriyasidagi o'zining asosiy funksiyasiga, ya'ni tabiiy atrof-muhit yoki uning komponentlarini, hayvonlar yoki o'simliklarning noyob turlari, landshaftlar va shu kabi tabiiy yodgorliklarni tomosha qilish va bioxilma-xillikni saqlab qolishdan gedonistik, evdomonistik zavqlanish, lazzatlanish, huzurlanish maqsadi va iqtisodiy manfaatdorligi uyg'un bo'lgan yagona yo'nalish, faoliyat turi hisoblanadi. Zero, tabiat bag'riga sayohat qilinishdan asosiy maqsad – sayyohlarning jonli tabiat, mahalliy aholi urf-odatlarini, an'analari, hayot tarzi va madaniyati bilan bevosita tanishib, gedonistik va evdomonistik hissiy tuyg'ularini shakllantirish, ekologik bilimlarini oshirishdan tashqari, ularni ruhiy-jismoniy sog'lomlashtirishda ham juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham shifokorlarning aksariyat zamonaviy industrilashgan, urbanizatsiyalashgan va axborotlashgan jamiyatlar "ekologik kasalliklarini" davolashda ekoturizmdan samarali foydalanishni tavsiya qilishlari bejizga emas.

Natijalar. Bu tavsiyalarni amalga oshirish uchun global ekologik muammolar yechimida ta'lim va tarbiyadagi dolzarb ahamiyatidan kelib chiqqan holda, ekologik turizmning hozirgi holati, rivojlanish tendensiyasi va istiqbol vazifalarini to'g'ri belgilab olish kerak. Xususan, tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatini sog'lomlashtirishga doir shaxs ekologik ongi, madaniyatini rivojlantirish, birinchidan, turli kasbiy yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatayotgan barcha aholi va sotsial tabaqalar ta'lim-tarbiya tizimida ekoturizmning ahamiyatini anglashiga, gnoseologik, ikkinchidan, uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning tabiatga estetik munosabatini, ongi va madaniyatini shakllantiruvchi samarador usullari, vositalarini tanlashga, metodologik, uchinchidan, ekologik turizm sohasiga mutasaddi barcha ijtimoiy-fuqarolik institutlar va davlat tashkilotlari faoliyatini integratsiyalashtirishga, birlashtirishga, bir maqsadga yo'naltirishga tashkiliy, to'rtinchidan, ekologik turizm ommaviyligi va samaradorligini ta'minlash uchun kadrlar korpusini yaratish jamoa kuch-g'ayratlarini uyushtirishga, axborot va intellektual asosligini va zarurligini inobatga olish lozim.

Tahlil. "Tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarining har qanday tarixiy bosqichida, uning rivojlanish darajasiga mos ekologik madaniyat transformatsiyasi usul-vositalari, shakllari vujudga kelgan. Qadimgi yozma manbalarda, arxeologik, etnografik tadqiqot natijalarida

kishilarning tabiiy-geografik yashash sharoiti bilan bog'liq, o'ziga xos ekologik madaniyati vujudga kelganligi tarixiy dalillar bilan isbotlanmoqda. Darhaqiqat, insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ham tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq kundalik ijtimoiy amaliyotning urf-odatlar, rasm-rusumlari, amaliy an'analar insonning tabiatga munosabatini emotsional-ruhiy ifodalash usuli bo'lgan. Xususan, qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalari mifologik, falsafiy, diniy dunyoqarashlarida insonning tabiatni muhofaza qilish faoliyatini rag'batlantiruvchi yoki tabiatga putur yetkazuvchi harakatlarini ta'qiqlovchi badiiy obrazlar yaratilgan.

Bu davrning eng asosiy xususiyati –“tabiat-jamiat-inson”tizimi munosabatlarini ilohiy-mifologik obrazlar, tasavvurlarda diniy-axloqiy tamoyillar ustuvorligidir. Keyinchalik, tabiatga “sivilizatsiyalashgan”, “madaniylashgan” munosabatning badiiy-estetik yo'nalishi va uning transformatsiyasi jadallashganligini ko'ramiz. Shu bilan birga “tabiat-jamiat-inson” majmuasi munosabatlarini tashkillashtirish va boshqarishda insonning tabiiy yashash sharoitlari bilan bog'liq ekoestetik qadriyatlar rolining oshishi badiiy ijod namunalari o'z ifodasini topgan. [2,13-14 b.].

Hozirgi davrda ekologik qadriyatlarni, tabiatga estetik munosabatni badiiy ifodalash ijodiga, san'at turlariga transformatsiyasi jarayonida, bir-birini taqozo qiladigan ikki tendensiya ko'zga tashlanmoqda birinchisi – inson ehtiyojlari tarkibida ekologik ehtiyojlar ustuvorlashuvi qonuni tabiatni muhofaza qilishda har bir ijtimoiy ong shakliga ham, san'at turiga ham, badiiy ijod janriga ham, alohida, xususiy personifikatsiyalashgan (individullashgan) vazifani yuklamogda; ikkinchisi – ekologik faoliyatning kompleks-sistemali xarakteri va uni badiiy ijodning turli janrlarida aks ettirish yo'nalishlarini, ijtimoiy ong shakllarini va badiiy ijod funksiyalari integratsiyasini kuchaytirib, ularni estetikalashtiruvchi omillar ustuvorlashuvini taqozo qilmoqda. [3,68.S.].

Bulardan tashqari, insoniyat hayotida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar fan, texnika, texnologiya taraqqiyoti, intellektual salohiyat imkoniyatlarning beqiyos o'sib ketishi «inson va tabiat», «jamiat va tabiat» munosabatlarini yangi mezonlar bilan baholash va ularni estetik-badiiy obrazlarda ifodalash, transformatsiya usullarini, vositalarini jiddiy qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. [4,160-b.]. Zero, tabiatga antropotexnogen ta'sir kuchayishi natijasida biosfera evolyutsion rivojlanishiga adekvat inson ekologik faoliyatini rag'batlantiradigan badiiy-estetik usullar, vositalar noshudligi ko'zga tashlanmoqda va insoniyat sivilizatsiyasi yutuqlari, uning istiqbollari katta xavf ostida qoldi. Ikkinchi tomondan, ekologik ongni va madaniyatni badiiy obrazlarda ifodalash tabiatga estetik munosabat jarayoni bo'lib, ijtimoiy-tarixiy amaliyotning maxsus shakli va darajasi hisoblanadi. Uning maxsusligi: 1) obykti xususiyatlaridan; 2) ehtiyojlari individualligidan; 3) manfaatlari umumiyigidan; 4) bilish usul-vositalari aniqligidan; 5) pedagogik-didaktik natijalari universalligidan kelib chiqadi. Eng muhimi, tabiatga estetik munosabat va uni badiiy obrazlarda ifodalash jamiat ma'naviy hayotining atributi bo'lib, uning funksiyalarini aniqlashga falsafiy kategoriyalar yo'nalishida yondashishni taqozo qiladi.

Ekologik ong va madaniyatning tabiatga estetik munosabatni belgilovchi va rag'batlantiruvchi funksional ahamiyatini o'rganishda bir tomondan, tabiatga estetik munosabatni shakllantirishning ekologik faoliyatni konstruktiv-ratsional tashkillashtirishdagi

rolini va maqomini; ikkinchi tomondan, tabiatga estetik munosabatni badiiy ifodalash janrlarining funksional integrativ xususiyatlarini va yo‘nalishlarini aniqlash muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega. [5,3-8 B.].

Tabiatga estetik munosabat, jamiyat madaniyatining tarkibiy qismi sifatida, ekologik axborotni uning subyektlari tomonidan obyektlariga transformatsiya qilish ehtiyojiga asoslanadi. Bunda transformatsiya qilinayotgan axborot mazmunan hamda shaklan ekologik borliqning mavjudik holatiga va rivojlanish tendensiyasiga adekvatligi alohida ahamiyatga ega.

Ekologik borliqni fundamental nazariy bilishda estetikaning ontologik, gnoseologik, metodologik va praksiologik funksiyalari turli amaliy darajalarda – kundalik oddiy urf-odatlar, an‘analar yoki murakkab texnik-texnologik madaniyatga asoslangan ekologik faoliyat tarzida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, insonning, umuman borliqga, xususan ekologik borliqga munosabatini estetik madaniyat tamoyillari asosida tashkil qilish bir tomondan, ekologik voqelikka estetik munosabat motivlarini, ifodalash usullari, vositalarining boshqa ijtimoiy ong shakllaridan farqi (maqomi va ahamiyati)ni aniqlashni; ikkinchi tomondan, turli madaniyat sohalarining tabiatni muhofaza qilishdagi moddiy va ma‘naviy, nazariy va amaliy faoliyatlari funksional bog‘lanishlarini nafosat qonunlari asosida tashkillashtirishni taqozo qiladi. [6,15-17 B.].

Hozirgi davrda turli xalqlar, mamlakatlar o‘rtasida global ekologik muammolarni hal qilish ehtiyoji va obyektiv zaruriyati ma‘naviy integratsiya jarayoni kuchaytirib, umuminsoniy-universal ekoestetik tafakkur usulini hamda unga mos keladigan amaliy harakatlar globallashtirishga sabab bo‘lmoqda. Bu jarayon ekologik va estetik faoliyatni integratsiyalashtirish orqali, nafaqat ekologik muammolarni, balki ularni vujudga keltirgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ruhiy-ma‘naviy sabablarga ham qarshi kurash imkoniyatlarini vujudga keltirmoqda. Chunki ekologik muammolarni badiiy-estetik usullar va vositalar bilan hal qilishning mazmun-mohiyatini, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviy-mafkuraviy va boshqa ijtimoiy munosabatlarini tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish manfaatlari asosida, inson “ekologik sifatlarini” o‘zgartirishga bo‘lgan maqsad va intilishlarni badiiy obrazlarda ifodalashni tashkil qiladi. [7,9-14 B.].

Lekin bu murakkab jarayon bo‘lib, uning natijasi jamiyatning moddiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga, ekologik va estetik manfaatlarini anglashga, adekvat usul-vositalarni tanlashga, ayniqsa, an‘anaviy shakllangan madaniy merosga vorislik va uni rivojlantirishga bog‘liqdir. Shuning uchun ta‘lim-tarbiya tizimida tabiat muhofazasi sohasidagi estetik va ekologik tarixiy merosga ijodiy munosabatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Zero, milliy ekoestetik madaniyat tarixiy merosini umuminsoniy ma‘naviy qadriyatlar tarkibiy qismi sifatida asrab-avaylab, ijodiy rivojlantirish hamda yangi ekoestetik madaniyat yo‘nalishlarini shakllantirish va hayotga joriy etish hozirgi davr talabidir.

Xulosa. Milliy ekoestetik tarixiy merosni tiklash va rivojlantirish murakkab ijtimoiy-psixologik vazifa bo‘lib, unga ongli, ijodiy munosabat shaxsning real ekologik borliq mohiyatini anglashi va badiiy obrazlarda ifodalash usulidir. Shuning uchun bir tomondan, umuminsoniy ekologik maqsad va manfaatlarga mos ekoestetik madaniyatga oid muqobil nazariy ta‘limotlarni integratsiyalashtirish, ifodalash vositalarni, uslublarni

muvoqlashtirishini ham; ikkinchi tomondan, ekoestetik madaniyatning «inson-tabi» munosabatlari ijtimoiy-ma'naviy mazmunini ochish «texnologiyasini» ham, tarixiy merosni ijodiy rivojlantirish usuli sifatida qarash kerak. Chunki odamlarning «yaqin o'tmishdagi dunyoqarashiga xos bo'lgan, inson – tabiat hukmdori, degan tasavvur o'rnini inson va jamiyat tabiatning bir qismi ekanligini, tabiatni bo'ysindirish emas, u bilan uyg'un munosabatlar o'rnatish zarurligi, deyarli to'la anglandi». Shuning uchun ham, hozirgi kun realligi ekologik faoliyatni estetikalashtirish va estetik ongni ekologiyalashtirishga mutasaddi bo'lgan barcha ta'lim-tarbiya institutlarining mustahkam nazariy-metodologik asoslarini, pedagogik-didaktik innovatsion texnologiyasini yaratishni taqozo etmoqda. O'z navbatida, bu ehtiyojlar turli ijtimoiy ong shakllari, darajalari va madaniyat sohalarini ekologik manfaatlar doirasida integratsiyalashuvi jarayonlari kuchayishiga olib kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Кутузов А.В. Роль экологического туризма в формировании новой системы принципов отношения к окружающей среде // Материалы 13-ой международной конференции молодых ученых 26-30 декабря 2002 г. «Человек. Природа. Общество. Актуальные проблемы». - Санкт-Петербург, 2002.- с.719.
2. Niyazov.S.S. YOshlarda ekoestetik idealni shakllantirishda tabiat turizmining o'ri va roli. :Avtoreferat.-Buxoro-2024:.-b.13-14.
3. Туленова Г. Создать экологически чистую среду. // Экономика и статистика. - 1998. -№ 5. с.68.
4. G'aybullayev Otabek. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat. –Toshkent: CHASHMA PRINT, 2008. –160 b.
5. Hakimov Nazar. Ekologik tarbiya va suv imkoniyatlaridan foydalanish // Sharq yulduzi. –Toshkent, 2009. –№2 – B.3-8.
6. Usmonov E. Ekologik munosabatlarning globallashuvi //Tafakkur. –Toshkent, 2009. – №4.–B. 15-17.
7. Niyazov.S.S.YOshlarda ekoestetik idealni shakllantirishda tabiat turizmining o'ri va roli. :Monografiyasi.“Big Makro World”Qarshi shahri 2025.-B.9-14.
8. Nomozov, Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH OHALARI." *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS* 1.2 (2024): 113-118.
9. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus* 2.6 (2023): 105-110.
10. Nomozov, Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje* 22 (2022): 229-231.
11. Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI.

TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR, 1(2), 52-58.

12.Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O‘RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O ‘RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.

13.Nomozov Xurshid Shavkat o‘g‘li. "YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O‘RNI." *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari* 5.2 (2025): 27-31.

14.Nomozov, Xurshid (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA‘SIRIDA SODIR BO ‘LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR, 1(2), 52-58.

15.NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O‘G‘LI. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.

16.NOMOZOV XURSHID SHAVKAT O‘G‘LI "AXBOROT XURUJINING O‘SMIRLAR HAYOTIGA TA‘SIRI." *QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.

17.Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O‘RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O ‘RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.

18.Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOY FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.

19.Номозов, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." *Философия и право* 26.3 (2023): 232-235.

20.Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Farg'ona davlat universiteti*,(3) (2023): 67-67.

21.Omonov, Bahodir Nurillayevich. "MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.21 (2024): 529-535.

22.Nurillayevich, O. B. "ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ ЎЗГАРИШЛАР." *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*,(SI-1) (2022).

23.Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения." *Gospodarka i Innowacje* 44 (2024): 235-242.

24.Omonov, B. N. "O ‘zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari." *Философия и право* 28.2 (2024): 41-43.

25.Omonov, Bahodir. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O ‘RNI." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 125-128.

26. Omonov, B. N. (2024). MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 529-535.

27. Nurillayevich, O. B. (2022). ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ ЎЗГАРИШЛАР. *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*, (SI-1).

28. Омонов, Б. Н. (2024). Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения. *Gospodarka i Innowacje*, 44, 235-242.

29. Omonov, B. N. (2024). О ‘zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari. *Философия и право*, 28(2), 41-43.

30. Omonov, B. (2025). EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O ‘RNI. *Modern Science and Research*, 4(3), 125-128.

31. Nurillayevich, Omonov Bahodir. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA MA’NAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDLARNING KUCHAYISHI VA UNGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI." *Conferences*. Vol. 1. No. 3. 2025.